

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O‘ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO‘RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o‘g‘li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O‘ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG‘ONIY TA‘LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN‘IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA‘SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> “O‘RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA‘RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA‘RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI”	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNYIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

HISTORICAL FORMATION AND SOCIAL FOUNDATIONS OF EDUCATION AND UPBRINGING OF CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDERS

Abdullayeva Surayyo Ashrafkhanovna

independent researcher (PhD),

National Pedagogical University of Uzbekistan

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the historical development of education and upbringing of children with autism spectrum disorders, as well as their social foundations. It explores the evolution of scientific understanding of autism, from early descriptions of the condition to contemporary interdisciplinary research. The study also examines changes in societal attitudes toward children with autism, including the transformation of stereotypes and social approaches to their support and inclusion. The paper discusses the main stages in the development of special education systems, the formation of defectology and special pedagogy, and the implementation of inclusive education as a significant social institution. Furthermore, it highlights modern pedagogical and psychological methods used in teaching children with autism, as well as issues related to their social adaptation and integration into society. The findings emphasize the importance of a comprehensive, systematic, and socially oriented approach in organizing education for children with autism spectrum disorders.

Keywords: autism spectrum disorders, autism, special education, defectology, inclusive education, social adaptation, developmental disorders, educational system, pedagogical approaches, historical development.

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI

Abdullayeva Surayyo Ashrafkhanovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ta'limi va tarbiyasining tarixiy shakllanish jarayoni hamda uning ijtimoiy asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda autizm tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi, uning dastlabki talqinlari hamda XX-XXI asrlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida shakllangan zamonaviy qarashlar yoritiladi. Maqolada maxsus ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, defektologiya va maxsus pedagogikaning shakllanishi, shuningdek inklyuziv ta'lim modelining joriy etilishi va uning ahamiyati tahlil etiladi. Bundan tashqari, autistik bolalarning ijtimoiylashuvi, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik va psixologik metodlar, ularning samaradorligi ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlashda kompleks, tizimli va ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: autistik spektr buzilishlari, autizm, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv, defektologiya, rivojlanish buzilishlari, ta'lim tizimi, pedagogik yondashuvlar, tarixiy rivojlanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N49>

Kirish. Hozirgi kunda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ta'limi va tarbiyasi global miqyosda dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda autizm tashxisi qo'yilgan bolalar sonining ortib borayotgani, ushbu toifadagi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularning sifatli ta'lim olishini ta'minlash va jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois mazkur masala nafaqat pedagogika

va psixologiya, balki ijtimoiy siyosat darajasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Autistik spektr buzilishlari murakkab nevropsixologik holat bo'lib, u bolalarning ijtimoiy muloqoti, nutq rivoji hamda xulq-atvorida o'ziga xos o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Tarixiy jihatdan qaralganda, autizm uzoq vaqt davomida yetarlicha o'rganilmagan, noto'g'ri talqin qilingan yoki umuman e'tibordan chetda qolgan. Faqat XX asrning o'rtalaridan boshlab ushbu sohada ilmiy izlanishlar kuchayib, autizm alohida rivojlanish buzilishi sifatida tan oлина boshlandi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlash jarayoni tarixiy rivojlanish bosqichlarini, jamiyatning ularga bo'lgan munosabatini hamda ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilishi, maxsus pedagogika yondashuvlarining takomillashuvi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanishi ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga, autistik bolalarning ijtimoiylashuvi, ularning jamiyatga moslashuvi va mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham alohida e'tiborni talab qiladi. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ta'limi va tarbiyasining tarixiy shakllanishi hamda ijtimoiy asoslarini tahlil qilish, shuningdek zamonaviy ta'lim yondashuvlarining samaradorligini yoritishdan iborat.

“Autizmning alohida klinik holat sifatida tavsiflanishi bilan birga, unga bo'lgan pedagogik munosabat ham asta-sekin shakllana boshladi. Ilk bosqichlarda bu ko'proq tibbiy-psixiatrik muolaja shaklida bo'lib, pedagogik aralashuvga juda oz e'tibor qaratildi”[1; 176-b]. Bolalar asosan izolyatsiyalangan muassasalarda, tengdoshlaridan va jamiyatdan ajratilgan holda parvarish qilindi. Bunday yondashuvning asosida bolaning muloqotga kirishmasligi va o'quv topshiriqlariga munosabat bildirmasligi ularni «o'qitib bo'lmaydigan» toifaga kiritish tarzidagi noto'g'ri xulosa yotardi.

“Ammo keyinroq ma'lum bo'ldiki, bu bolalar o'qita olmaydigan emas, balki ularga mos metodlar ishlab chiqilmagan edi. Vaziyat 1960-70-yillardan boshlab o'zgarib boshladi”[2; 256-b.]. Aynan shu davrda autistik bolalar bilan ishlovchi pedagoglar va psixologlar ularning o'rganishga qodir ekanligini, biroq buning uchun maxsus pedagogik muhit, tuzilgan faoliyat va individual yondashuv zarurligini kuzata boshladilar. Bu e'tiqod hali keng tan olinmagan bir paytda bir qator tadqiqotchilar empirik kuzatishlar asosida autistik rivojlanishga xos bo'lgan o'rganish mexanizmlarini aniqlay boshladilar. Vizual idrokning kuchliligi, tartib va ketma-ketlikka qiziqish, muayyan mavzularga chuqur qiziqish kabi xususiyatlar endi «muammo» sifatida emas, balki pedagogik qurilishda tayanch bo'la oladigan resurslar sifatida ko'rina boshladi. Shu davrda AQShda autistik bolalar bilan ishlashning ilk tizimli pedagogik modeli sifatida TEACCH dasturi (Treatment and Education of Autistic and Related Communication-handicapped Children) yaratildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu dasturning asoschilari autistik bolalarning o'rganish uslubi boshqalarnikidan sifat jihatidan farq qilishini va bu farqni nuqson sifatida emas, balki o'ziga xos xususiyat sifatida qabul qilish zarurligini asosladilar. TEACCH yondashuvida muhitni bolaning ehtiyojiga moslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi: fizik makonni tuzilgan holda tashkil etish, vizual jadvallar va ko'rsatmalardan foydalanish, kun tartibini oldindan aniqlashtirish, vazifalarni qismlarga bo'lib taqdim etish kabi tamoyillar joriy etildi. Bu tamoyillar hozir ham zamonaviy korreksion pedagogikaning asosini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, xulq-atvor tahlili asosidagi yondashuvlar ham rivojlana boshladi. Ushbu

yoʻnalishda bolaning xatti-harakati funksional tahlil qilinib, u orqali bolaning nima aytmoqchi yoki nima qilmoqchi ekanligini anglashga urinildi. Musbat mustahkamlash, koʻnikmani kichik bosqichlarga boʻlib oʻrgatish, tabiiy muhitda mashq qilish va oilaviy hayotga integratsiya qilish tamoyillari shu davrda shakllanib, keyinchalik dunyo miqyosida eng keng qoʻllaniladigan korreksion metodologiyalar qatoriga kirdi. Bolalarning tajribalari va ota-onalarning kuzatuvlari asosida toʻplangan empirik maʼlumotlar ushbu yondashuvlarning ilmiy asosini tobora kuchaytirdi.

“1980-yillar va 1990-yillarda autistik spektr buzilishlari boʻlgan bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning ijtimoiy sharoitlari sifat jihatidan yangilandi” [3; 198-b.].

Muhokama. Bu oʻzgarishda uchta asosiy omil hal qiluvchi rol oʻynadi. Birinchisi — diagnostika standartlarining takomillashishi boʻlib, bu autistik spektr buzilishlari boʻlgan bolalarning maktab tizimida tanilishi va ularga xizmat koʻrsatilishi imkonini berdi.

Ikkinchisi — ota-onalar tashkilotlari va advokatsiya harakatlarining kuchayishi boʻlib, bu davlat siyosati darajasida oʻzgarishlar olib keldi. Uchinchisi esa maxsus taʼlim sohasidagi qonunchilik bazasining kengayishi boʻlib, autistik bolalarga maktab tizimida yordam koʻrsatish majburiyatini huquqiy jihatdan belgilab berdi.

Ushbu ijtimoiy va huquqiy oʻzgarishlar natijasida autistik spektr buzilishlari boʻlgan bolalar uchun maktab tizimida maxsus dasturlar, individual taʼlim rejaları, koʻp tarmoqli mutaxassislar jamoasi va oilaviy hamkorlik mexanizmlari joriy etila boshlandi. Bu esa korreksion-pedagogik ishning nafaqat mazmunini, balki uni tashkil etish shakl va usullarini ham tubdan oʻzgartirdi. Endilikda bola faqat muassasaga joylashtirilmay, balki uning individual rivojlanish profili asosida shaxsiy taʼlim marshrutini shakllantirishga intilindi. Ushbu yondashuv nafaqat samarali, balki insonparvarlik jihatidan ham yanada toʻgʻri ekanligini amaliyot tasdiqladi.

“2000-yillardan boshlab butun dunyoda inklyuziv taʼlim gʻoyasining kuchayishi korreksion-pedagogik ishning yangi ijtimoiy sharoitini vujudga keltirdi” [4; b-784]. Inklyuziya tamoyiliga koʻra, barcha bolalar, shu jumladan autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ham, tengdoshlari bilan bir taʼlim muhitida boʻlishlari, shu bilan birga ularga zarur boʻlgan individual qoʻllab-quvvatlash xizmatlarini olishlari kerak. Bu yondashuv nafaqat taʼlim samaradorligini oshirish maqsadida, balki bolaning ijtimoiy integratsiyasi, identifikatsiyasi va tenglik huquqini taʼminlash nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi. Biroq inklyuziyaning samarali boʻlishi uchun faqat jismoniy yaqinlik emas, balki metodik, kadrlar va tashkiliy tayyorgarlik ham zarur ekanligi vaqt oʻtishi bilan tobora yaqqolroq namoyon boʻldi.

“Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa Skandinaviya davlatlarida, autistik spektr buzilishlariga ega bolalarga koʻrsatiladigan yordam tizimi yuqori darajada rivojlangan” [5; 1500-b.]. Bu davlatlarda erta skrining va tashxis, erta aralashuv xizmatlari, maktab davrida intensiv individual qoʻllab-quvvatlash va kattalik davriga oʻtish jarayonida ijtimoiy taʼminot kabi bosqichlar yagona zanjir sifatida bir-birini davom ettiradi. Bunday yondashuv davlat siyosati, ilmiy maktablar va jamiyatning bahamjihat ishtiroki natijasida shakllangan boʻlib, uni bir zumda boshqa mamlakatlarga koʻchirib boʻlmaydi. Biroq unda mujassam boʻlgan tamoyillar — ertangi xizmat, oila markazi, fanlararo hamkorlik va ijtimoiy integratsiya - universal ahamiyatga ega. “Osiyo mamlakatlarida, xususan Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyda ham autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu mamlakatlarda ham ilmiy tadqiqotlar, maxsus taʼlim xizmatlari va oilaviy

qo'llab-quvvatlash tizimlari jadal rivojlanmoqda" [6; 384-b.]. Biroq bu jarayonning o'ziga xos tomoni shundaki, mazkur mamlakatlarda uning kechishi mahalliy madaniy va ijtimoiy normalar, oilaviy qadriyatlar hamda ta'lim tizimining tuzilishi bilan bog'liq holda farq qiladi. Bu esa korreksion-pedagogik ishning universalligi bilan birga mahalliy moslashuvning ham muhimligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo va postsovet makonida autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlashning tarixi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Natijalar. Sovet davrida maxsus ta'lim tizimi ko'proq defektologiya fani doirasida rivojlangan bo'lib, u nutq buzilishlari, eshitish yoki ko'rishning zaifligi, aqliy rivojlanishdagi kechikish kabi holatlarni qamrab olardi. Autistik xususiyatlar esa ko'pincha ushbu toifalar ichida, ayniqsa «aqliy rivojlanishdagi kechikish» yoki «shizofreniya» tashxislari ostida yashiringan holda qolgan. Bu esa bu toifadagi bolalar uchun maxsus metodikalar ishlab chiqilishini sekinlashtirdi. Sovet davrida defektologiya maktabining ijobiy tomoni shundaki, u tuzatish va kompensatsiyaga asoslangan yondashuv, jamoaviy ish uslubi va oilaviy hamkorlikka oid ba'zi an'analarni shakllantirgan edi. Biroq bu tizim asosan segregatsiya modeli, ya'ni bolalarni umumiy ta'limdan ajratib, ixtisoslashtirilgan muassasalarda o'qitish tamoyiliga tayanar edi. Autistik spektr buzilishlariga ega bolalar esa bunday muassasalarda ham ko'pincha o'z ehtiyojlariga mos bo'lmagan muhitda ta'lim olar edi, chunki ushbu muassasalar odatda boshqa toifadagi bolalarga mo'ljallangan edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ta'lim va ijtimoiy himoya sohasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarga qo'shilish, inklyuziv ta'lim tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish, maxsus ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish va yangi xizmat shakllarini yo'lga qo'yish shu islohotlarning asosiy yo'nalishlari bo'ldi. Shu jarayonlarda autistik spektr buzilishlariga ega bolalarga nisbatan ham alohida ilmiy va amaliy e'tibor qarata boshlandi. Maxsus ta'lim, logopediya va korreksion psixologiya yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimi ham asta-sekin yangilana bordi.

Respublikamizda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlashning ijtimoiy sharoitlarini tavsiflaydigan bir necha muhim omil mavjud. Birinchidan, erta tashxis qo'yish tizimining rivojlanishi hududlar bo'yicha notekis kechmoqda.

Shaharlarda bolalar psixiatriyasi, neyropsixologiya va logopediya xizmatlari nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ayrim hududlarda mutaxassislar va diagnostik vositalar yetarli emas. Ikkinchidan, ijtimoiy ongda autistik spektr buzilishlariga bo'lgan munosabat ham hali yetarli darajada shakllanmagan.

Ko'pgina oilalar bolaning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini dastlab tushunmay, mutaxassisga kechroq murojaat qilishi mumkin. Bu esa erta aralashuvning samarasi yo'qolishiga olib keladi.

Respublikamizda maxsus ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvga o'tish jarayoni hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Umumta'lim maktablarida resurs sinflari va moslashtirilgan dasturlar yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini inklyuziv muhitga tayyorlash, pedagog va logopedlarning malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Biroq bu jarayon hali to'liq shakllanib ulgurgani yo'q.

Xususan, autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun maxsus tayyorgarlik kurslari, zamonaviy ilmiy asoslangan metodikalar va amaliy ko'nikmalarni

rivojlantirishga mo'ljallangan tizimli dasturlar kamchilik qiladi. Bu esa amaliyotda professional yondashuvlarning sifatini pasaytiruvchi omil bo'lib qolmoqda.

Oilalarning roli Respublikamiz sharoitida ayniqsa muhim. Mahalliy mentalitet va an'analarga ko'ra, bola tarbiyasi va rivojlanishi asosan oila mas'uliyati sifatida qabul qilinadi. Bu bir tomondan bolaga ota-onasining chuqur e'tibor qaratishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan muammo haqidagi ma'lumot va yordam manbalari yetarli bo'lmagan hollarda oilani yakkalanishga olib kelishi mumkin. Shu sababli autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning samaradorligi ko'p jihatdan oilaga ko'rsatiladigan metodik, psixologik va ijtimoiy yordamning darajasiga ham bog'liq.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xorij mamlakatlaridagi tajriba va Respublikamiz amaliyoti o'rtasida bir qator farqlar mavjud. Xorijda korreksion -pedagogik ish tizimi uzoq yillar mobaynida shakllanib, mustahkam metodik, huquqiy va institutsional asosga ega bo'lgan bo'lsa, Respublikamizda ushbu tizim shakllanish bosqichida bo'lib, jadal rivojlanish yo'lida davom etmoqda. Biroq aynan shu bosqich yangi g'oyalar va yondashuvlar uchun eng ijodiy zamin ham bo'lishi mumkin. Chunki xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish imkoniyati mavjud bo'lganda, ilgari bu yo'lni bosib o'tganlarga xos xatolarni takrorlashdan qochish mumkin.

Respublikamizda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari qatorida quyidagilar alohida ahamiyatga ega.

Birinchi, erta tashxis va erta aralashuv xizmatlarini kengaytirish va ularning sifatini oshirish zarur.

Ikkinchi, mutaxassislar tayyorlash tizimini zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan boyitish lozim.

Uchinchi, oilaviy hamkorlikni kuchaytirishga, ota-onalar uchun metodik va psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish kerak.

To'rtinchi, korreksion-pedagogik ish amaliyotini ilmiy tadqiqotlar bilan doimiy bog'liq holda olib borish, mahalliy sharoitga mos metodikalar ishlab chiqish va ularning samaradorligini o'lchash muhim. Beshinchi, jamiyatda autistik spektr buzilishlariga ega bolalarga nisbatan tushunish va qabul qilish muhitini kengaytirish uchun ma'rifiy ishlarni faollashtirish zarur.

Umuman olganda, xorij mamlakatlari va Respublikamizda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishning tarixiy va ijtimoiy sharoitlari tahlili bir qator muhim xulosalarga olib keladi.

Birinchi: ushbu sohaning rivojlanishi chiziqli emas, u ilmiy bilimlarning to'planishi, ijtimoiy munosabatning o'zgarishi, huquqiy muhitning shakllanishi va amaliy tajribaning boyishi bilan birgalikda kechadi.

Ikkinchi: har qanday mamlakatda korreksion-pedagogik ishning samaradorligi nafaqat metodlar sifatiga, balki ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy tizimning yaxlitligiga ham bog'liq.

Uchinchi: xorijiy tajriba universal tamoyillar va moslashuvchan yondashuvlarni taqdim etsa-da, ularni har bir milliy kontekstda qayta talqin qilish va mahalliy sharoitga moslashtirish zarur.

To‘rtinchisi: autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning markazida doimo bola — uning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va istiqboli — turishi lozim.

Mazkur xulosalar dissertatsiyaning keyingi bo‘limlarida ko‘rib chiqiladigan nazariy va amaliy masalalarga metodologik poydevor vazifasini o‘taydi. “Autistik spektr buzilishlariga ega bolalarda nutq rivojlanishi va logopedik mashg‘ulotlar samaradorligi masalalarini tarixiy va ijtimoiy kontekstdan ajratib o‘rganib bo‘lmaydi” [7; 11-b.]. Chunki har qanday metodika muayyan ijtimoiy muhit, ilmiy an‘analar va pedagogik madaniyat doirasida shakllanadi va shu muhitda o‘z samarasini namoyon qiladi. Shu ma’noda ushbu paragrafda yoritilgan tarixiy va ijtimoiy sharoitlar nafaqat o‘tgan tarixning bayoni, balki hozirgi korreksion-pedagogik amaliyotni yanada chuqurroq anglash uchun zarur ilmiy kontekstdir.

Har qanday ilmiy tadqiqotning samaradorligi ko‘p jihatdan uning qanday nazariy-metodologik asosga tayanishiga bog‘liq. Muammoni aniqlash, uni o‘rganish usullarini tanlash, olingan ma’lumotlarni talqin qilish va xulosalar chiqarish -bularning barchasi tadqiqotchining metodologik yo‘nalishi bilan belgilanadi.

Autistik spektr buzilishlari muammosi o‘zining murakkabligi, ko‘p qirraliligi va fanlararo xarakteri bilan tadqiqotchi oldiga o‘ziga xos metodologik talablar qo‘yadi.

Ushbu talablarga to‘liq javob berish uchun faqat bitta nazariy maktab yoki yagona metodologik yondashuv bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shu sababli zamonaviy ilmiy amaliyotda autistik spektr buzilishlari muammosi integrativ, ko‘p darajali va transditsiplinar metodologiya asosida o‘rganiladi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shakllantirish jarayonida avvalo ushbu muammoning qaysi ontologik pozitsiyadan — ya’ni qanday tabiatga ega hodisa sifatida — ko‘rilishi aniqlanishi lozim. Zamonaviy ilmiy qarashlar autistik spektr buzilishlarini na faqat tibbiy holat, na faqat pedagogik muammo, na faqat ijtimoiy farq sifatida emas, balki inson neyrobiologiyasi, ijtimoiy muhit va rivojlanish jarayonlarining o‘zaro ta’siridan yuzaga keladigan murakkab ko‘p omilli holat sifatida talqin qiladi. Bu ontologik pozitsiya metodologiyaga ham ta’sir qiladi: tadqiqotchi faqat simptomlarni kuzatish yoki faqat miya faoliyatini o‘lchash bilan chegaralanmay, balki bolaning ijtimoiy muhiti, oilaviy konteksti, ta’lim sharoitlari va individual rivojlanish dinamikasini ham qamrab oluvchi yondashuv tanlashi zarur bo‘ladi.

Metodologik asosning ikkinchi muhim qismi epistemologik pozitsiya, ya’ni bilim qanday yo‘l bilan olinishi va u qanchalik ishonchli hisoblanishi haqidagi savolga javobdir. Autistik spektr buzilishlari tadqiqotlarida zamonaviy ilmiy amaliyot ko‘proq dalillarga asoslangan yondashuv tamoyilini qabul qiladi. Bu tamoyilga ko‘ra, korreksion amaliyotda faqat ilmiy jihatdan tekshirilgan, takrorlanadigan va obyektiv o‘lchov vositalari bilan tasdiqlangan usullar tavsiya etiladi. Shu bilan birga, har bir bolaning o‘ziga xosligi va ta’lim jarayonining murakkabligi sababli faqat miqdoriy ma’lumotlar bilan chegaralanib bo‘lmaslik ham tan olinmoqda. Shu sababli tadqiqotlarda miqdoriy (kuzatuv natijalari, statistika, test ko‘rsatkichlari) va sifat (klinik kuzatuv, suhbat, amaliyot holati tahlili) metodlari birgalikda qo‘llaniladi.

Autistik spektr buzilishlari muammosining nazariy asoslarini ko‘rib chiqishda L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, “bolaning yuqori psixik funksiyalari dastlab ijtimoiy faoliyat va

muloqot jarayonida tashqi vositalar orqali shakllanib, keyinchalik ichki psixik jarayonga aylanadi” [8; 287-b.]. Bu tamoyil autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi: agar bola mustaqil ravishda muloqotga kira olmayapti, demak unga tashqi tayanch, strukturalashgan yordam va maqsadli ijtimoiy o‘zaro ta‘sir sharoiti zarur. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi ham ushbu kontekstda alohida ahamiyatga ega, chunki u bolaning hozirgi imkoniyati bilan unga yordam bilan erishishi mumkin bo‘lgan imkoniyat o‘rtasidagi masofani ko‘rsatib beradi. Aynan shu masofada pedagog va logopedning aralashuvi eng samarali bo‘ladi.

A.R. Luriyaning neyropsixologik maktabi ham autistik spektr buzilishlari tadqiqotlarining nazariy-metodologik asosiga muhim hissa qo‘shgan. Luriya ishlab chiqqan yuqori psixik funksiyalarning tizimli-dinamik lokalizatsiyasi nazariyasiga ko‘ra, murakkab psixik jarayonlar miyaning muayyan bir qismida emas, balki turli miya tuzilmalarining birgalikdagi faoliyatida amalga oshadi. Ushbu nazariya autistik spektr buzilishlarida kuzatiladigan qiyinchiliklarni, masalan, nutq, diqqat, xotira va xulq-atvorni boshqarishdagi muammolarni yagona, yaxlit tizim doirasida ko‘rib chiqishga imkon beradi. “Neyropsixologik tekshiruv metodologiyasi bolaning rivojlanish profilini shakllantirishda, ya‘ni qaysi funksiyalar nisbatan saqlangan, qaysilari o‘ziga xos rivojlanganini aniqlashda asosiy asbobga aylanadi” [9; 384-b.].

A.N. Leontevning faoliyat nazariyasi ham ushbu tadqiqotning muhim nazariy asoslaridan birini tashkil etadi. Faoliyat nazariyasiga ko‘ra, “bolaning psixik rivojlanishi va ko‘nikmalarning shakllanishi avvalo faoliyat jarayonida — ya‘ni maqsadli, motivatsiyalangan va vositachilikka asoslangan harakatlar orqali – kechadi”. Bu tamoyil autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishni tashkil etishda ham amaliy yo‘l-yo‘riq beradi. Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun bola uchun mazmunli bo‘lgan faoliyat, ya‘ni uning qiziqishini uyg‘otadigan va ichki motivatsiyani faollashtiruvchi vaziyat yaratilishi zarur. Aks holda, mexanik mashqlar orqali shakllangan ko‘nikma real muloqot vaziyatlarida qo‘llanilmaydi.

Autistik spektr buzilishlari muammosining metodologiyasida xulq-atvor tahlili tamoyillari ham muhim nazariy o‘rin egallaydi. Xulq-atvor tahlilining asosiy metodologik qoidasiga ko‘ra, xulq-atvor tasodifiy emas, balki muayyan antedent (sabab) va konsekvent (oqibat) omillar orqali shakllanadi va saqlanadi. Ushbu tamoyil autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalarda kuzatiladigan muammoli xulq-atvorni tushuntirishda ham, uni o‘zgartirishga qaratilgan korreksion ishni rejalashtirishda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xulq-atvorning funksional tahlili, ya‘ni muayyan xatti-harakat qanday maqsadga xizmat qilayotganini aniqlash bolaga mos muqobil ko‘nikmalarni shakllantirishda metodologik asos hisoblanadi.

Inkluziv ta‘lim paradigmasi ham zamonaviy autistik spektr buzilishlari tadqiqotlarining muhim nazariy-metodologik asoslaridan biri sifatida qaraladi. Inkluziya nafaqat bolani umumiy sinfga joylashtirish degan ma‘noni anglatmaydi, balki har bir bolaning o‘ziga xosligini tan olgan holda unga barcha uchun qulay ta‘lim muhiti va individual qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish tizimini yaratishni bildiradi.

Autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun inkluziv yondashuv nafaqat ta‘lim samaradorligini oshirishi, balki ijtimoiylashuv, tengdoshlar bilan muloqot va o‘z imkoniyatlarini anglash imkoniyatini ham kengaytirishi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

Shu sababli inkluziv ta'lim nazariyasi mazkur dissertatsiyaning metodologik asoslaridan birini tashkil etadi.

Zamonaviy tadqiqot metodologiyasida bioekologik rivojlanish modeli ham autistik spektr buzilishlarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Ushbu modelga ko'ra, "bolaning rivojlanishi uning atrofidagi muhit qatlamlari — mikrosistema (oila, sinf, tengdoshlar), mezosistema (maktab va oila o'rtasidagi munosabat), ekzosistema (mahalla, ta'lim tizimi) va makrosistema (ijtimoiy-madaniy kontekst) — bilan o'zaro ta'sirida shakllanadi" [11; 384-b.]. Bu model autistik spektr buzilishlari bo'lgan bolaga yordam ko'rsatishda faqat bolaning o'ziga emas, balki uni o'rab turgan barcha muhit qatlamlariga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli korreksion-pedagogik ish faqat mutaxassis kabineti bilan cheklanmay, oila, maktab va jamiyatni ham qamrab olgan holda tashkil etilishi lozim.

Tadqiqotning empirik qismi uchun ham aniq metodologik asoslar belgilanishi kerak. Autistik spektr buzilishlarini o'rganishda qo'llaniladigan empirik metodlar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi, kuzatuv metodlari, ya'ni bolaning tabiiy muhitdagi va maxsus tashkil etilgan sharoitlardagi xulq-atvorini tizimli qayd etish.

Ikkinchi, standartlashtirilgan diagnostika vositalari, masalan, nutq rivojlanishi, ijtimoiy ko'nikmalar va xulq-atvorni baholovchi shkala hamda test tizimlari.

Uchinchi, eksperimental metod, ya'ni korreksion dasturning samaradorligini nazorat va eksperimental guruhlar orqali taqqoslab baholash.

To'rtinchi, miqdoriy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun matematik-statistik usullar, masalan, korrelyatsion tahlil, mezonlar o'rtasidagi farqni aniqlash uchun statistik testlar va dinamik o'zgarishlarni kuzatish.

"Sifat tadqiqot metodlari ham ushbu muammoni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan chuqur suhbatlar, mutaxassislarning klinik kuzatuvlari, individual holat tahlillari (case-study) va ish tajribasini refleksiv o'rganish usullari bolaning rivojlanishini miqdoriy ko'rsatkichlar bilan to'liq aks ettirib bo'lmaydigan jihatlarini ochib berishga imkon beradi" [12; 192-b.].

Masalan, bola bilan o'rnatilgan emotsional aloqaning sifati, ota-onalarning korreksion jarayonga munosabati yoki yangi ko'nikma o'zlashtirilganda bola tomonidan namoyon bo'lgan his-tuyg'ularni sifat metodlari orqali o'rganish maqsadga muvofiq. Shu sababli zamonaviy tadqiqot metodologiyasida miqdoriy va sifat metodlarini birlashtirishning ahamiyati kuchaymoqda.

Mazkur dissertatsiyaning metodologik asosini belgilashda yana bir muhim tadqiqot obyektini bolaning rivojlanish profili sifatida emas, balki korreksion-pedagogik jarayon sifatida ko'rish zarurligidir. Ya'ni tadqiqotchi faqat autistik spektr buzilishlari bo'lgan bolada nima o'zgarganini emas, balki qanday pedagogik ta'sir qaysi sharoitda, qaysi bolalar guruhida, qanday ko'rsatkichlar bo'yicha qancha o'zgarish berganini o'lchashi lozim. Bu metodologik pozitsiya tadqiqotni korreksion-pedagogik amaliyotga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq holga keltiradi va olgan natijalarning amaliy qo'llanilishini ta'minlaydi.

Xulosa. Shuni ta'kidlash joizki, autistik spektr buzilishlari muammosini o'rganishda tadqiqot etikasi ham metodologiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Bolalar bilan olib boriluvchi har qanday tadqiqot ota-onalarning yozma roziligini, bolaning farovonligi va xavfsizligini asosiy ustuvor sifatida qabul qilishni, ma'lumotlarning

maxfiylikni ta'minlashni va tadqiqot jarayonining shaffofligini talab qiladi. Shu bilan birga, autistik spektr buzilishlari bo'lgan bolalar bilan eksperimental ish o'tkazishda ularning ishtiroki ixtiyoriy bo'lishi, kerak bo'lsa istalgan vaqtda to'xtatilishi mumkinligi ham metodologik jihatdan ta'minlanishi lozim.

Avtistik spektr buzilishlari tadqiqotlarida diagnostika metodologiyasi ham alohida muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy diagnostika yondashuvi bir martalik tekshiruvdan ko'ra dinamik baholashni afzal ko'radi. Dinamik baholash bolaning muayyan bir paytdagi rivojlanish darajasini emas, balki uning o'rganish qobiliyatini, yordam bilan erishishi mumkin bo'lgan natijasini va rivojlanish potensialini aniqlashga qaratilgan. Bu yondashuv Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi tushunchasi bilan metodologik jihatdan chambarchas bog'liq bo'lib, korreksion ish rejasini bolaning joriy holati emas, balki uning potentsiali asosida qurishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasida standartlashtirilgan va nostandartlashtirilgan usullarning uyg'unlashtirilishi ham muhim tamoyil sifatida qaraladi.

Standartlashtirilgan usullar — turli tadqiqotchilar va muhitlarda taqqoslash imkonini beruvchi, ishonchlilik va validlik ko'rsatkichlari tasdiqlangan baholash vositalari — autistik spektr buzilishlari muammosini o'rganishda obyektivlikni ta'minlaydi.

Nostandartlashtirilgan usullar esa individual rivojlanish xususiyatlarini, mahalliy kontekstni va sifat jihatdan o'ziga xos ko'rsatkichlarni qayd etishga imkon beradi.

Ikkalasining birgalikda qo'llanilishi tadqiqot natijalarining to'liqligini va amaliy foydaliligini oshiradi.

Uchinchi tamoyil — dinamik baholash, ya'ni bolaning rivojlanish natijalarini bir martalik emas, balki doimiy va ko'p komponentli kuzatuv orqali o'lchash.

To'rtinchi tamoyil — amaliyotga yo'naltirilganlik, ya'ni tadqiqot natijalarining bevosita korreksion-pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi uchun yo'naltirilganligi.

Beshinchi tamoyil — etik mas'uliyat, ya'ni tadqiqot ishtirokchilarining huquqlari va xavfsizligini ta'minlash.

Autistik spektr buzilishlari muammosining nazariy-metodologik asoslarini shakllantirish bu muammoning tabiati, uni o'rganishning ilmiy tamoyillari va korreksion-pedagogik amaliyotga bo'lgan munosabatni belgilaydi. Vigotskiy, Luriya va Leontev kabi klassik psixologik maktab vakillari ishlab chiqqan tamoyillar zamonaviy xulq-atvor tahlili, inkluziv ta'lim paradigmasi va bioekologik rivojlanish nazariyasi bilan uyg'unlashgan holda mazkur dissertatsiyaning nazariy poydevoriga aylanadi. Shu poydevor asosida autistik spektr buzilishlari bo'lgan bolalarda logopedik mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun xulq-atvor menejmentiga asoslangan integrativ korreksion model ishlab chiqish ilmiy jihatdan asoslangan va metodologik jihatdan izchil yo'nalish ekanligi ko'rsatiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Baron-Cohen, S. Autism and Asperger Syndrome. - Oxford: Oxford University Press, 2008. - 176 p.
2. Prizant B. Uniquely Human: A Different Way of Seeing Autism. - New York: Simon & Schuster, 2015. - 256 p.
3. Mesibov, G.B., Shea, V., Schopler, E. The TEACCH Approach to Autism Spectrum Disorders. - New York: Springer, 2005. - 198 p.
4. Paul, R. Language Disorders from Infancy through Adolescence. - St. Louis: Mosby, 2007. - 784 p.

5. World Health Organization. ICD-11 for Mortality and Morbidity Statistics. – Geneva: World Health Organization, 2019. - 1500 p.
6. Greenspan, S.I., Wieder, S. Engaging Autism. - Cambridge, MA: Da Capo Press, 2006. – 384 p.
7. Prizant, B.M. Uniquely Human: A Different Way of Seeing Autism. – New York: Simon & Schuster, 2015. – 11 p.
8. Выготский, Л.С. Мышление и речь. М: Педагогика, 1982. - 287 с.
9. Лурия, А.Р. Основы нейропсихологии. М: Академия, 2003. - 384 с.
10. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. - 304 с.
11. Greenspan, S.I., Wieder, S. Engaging Autism. – Cambridge, MA: Da Capo Press, 2006. - 384 p.
12. Hobson, P. The Cradle of Thought. – London: Macmillan, 2002. - 192 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).